

**HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA**

**“BOLALAR ADABIYOTI” FANIDAN  
TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL  
ETISH BO‘YICHA METODIK  
TAVSIYALAR VA TOPSHIRIQLAR**

**(USLUBIY KO‘RSATMA)**

**NAMANGAN-2023**

**HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA**

**“BOLALAR ADABIYOTI” FANIDAN TALABALARNING  
MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA METODIK  
TAVSIYALAR  
(uslubiy ko‘rsatma)**

**Namangan-2023**

Mazkur “Bolalar adabiyoti” fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar va topshiriqlar” nomli uslubiy ko‘rsatma O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 25-avgustdagi 365-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan “Bolalar adabiyoti” fan dasturi asosida tuzilgan.

**Muallif:** filologiya fanlari nomzodi, professor  
Hamidova Muhayyoxon

**Taqrizchilar:** p.f.n., dotsent N.Uluxujayev  
PhD M.Muhammadaliyeva

“Bolalar adabiyoti” fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar va topshiriqlar” nomli uslubiy ko‘rsatma Boshlang‘ich ta’limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasida yig‘ilishining 2023-yil 2023-yil 28-avgustdagi 1-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan.

“Bolalar adabiyoti” fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar va topshiriqlar” nomli uslubiy ko‘rsatma Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakultetining 2023-yil 2023-yil 28-avgustdagi 1-sonli kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.

Mazkur uslubiy ko‘rsatma Namangan davlat universiteti O‘quv-uslubiy Kengashida 2023- yil 20-sentabrda o‘tkazilgan yig‘ilishida 1-bayonnoma bilan muhokama qilingan va nashr etishga tavsiya etilgan.

**M.Hamidova.**

“Bolalar adabiyoti” fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar va topshiriqlar” (uslubiy ko‘rsatma).- Namangan, 2023.- 20 b.

©Namangan davlat universiteti

## 1. Mustaqil ta`limning umumiy tavsifi

Mamlakatimiz ta`lim tizimida o`tkazilayotgan islohotlar Oliy ta`limning o`z oldiga qo`ygan vazifalaridan biri –mutaxassisni o`z-o`zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olish salohiyatini takomillashtirishga, innovatsion faoliyatdan keng qamrovda foydalanishga tayyorlashni taqozo etadi. Belgilangan vazifani amalga oshirish uchun faqat o`qituvchi tomonidan beriladigan bilimlar yetarli bo`lmaydi, albatta. Shuning uchun keyingi yillarda talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularga mustaqil bilim olishlariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2009-yilning 14-avgustida OO`MTV 286-buyrug`i asosida “Talabalar mustaqil ta`limini tashkil etish va nazorat qilish bo`yicha yo`riqnoma” joriy etildi.

Ta`kidlash lozimki, so`nggi yillarda talabalar mustaqil ta`limni tashkil etish va o`tkazish bo`yicha respublikamiz oliy ta`lim tizimida muayyan tajriba to`plandi. Quyida ana shunday tajribalarga tayangan holda talabalar mustaqil ta`limni tashkil etish haqida fikr yuritamiz.

Xo`sh, talabaning mustaqil ta`limi deganda nimalar tushuniladi? Ta`kidlash joizki, talabaning ta`limning zamonaviy usullarini egallashga, uning ijodiy qobiliyatlarini o`stirishga, fikrlash tarzini takomillashtirishga yo`naltirilgan. Faoliyat, talabada mustaqil fikr paydo bo`lta`limga, uning bilish faolligiga imkon beradigan har qanday mashg`ulot turi mustaqil ta`limni tashkil etadi. Tor ma`noda esa, talabaning mustaqil ta`lim uning auditoriya va undan tashqarida, o`qituvchi rahbarligi ostida yoki o`qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil majmuini anglatadi.

O`qishning boshlang`ich bosqichlarida TMI ni tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog`liq. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarining ta`limning navbatdagi turi – oliy ta`lim talabalariga ko`nikta`lim qiyin kechadi. Chunki ular ta`lim olish jarayonida o`z mustaqil faoliyatlarini tashkil qilishni deyarli bilishmaydi. Ma`lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o`z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o`z vaqtlarini to`g`ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to`g`ri baholash ular uchun katta muammo bo`ladi. eng asosiysi,

ular mustaqil ta`lim olishga ruhan tayyor bo`lishmaydi.

Shuning uchun har bir professor-o`qituvchi dastlab talabada o`z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg`otta`lim, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to`g`ri tashkil qilishga o`rgatib borta`lim lozim bo`ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o`zlashtiriladigan bilim va ko`nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borta`limni hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. SHunda mustaqil ta`limga ko`nika boshlagan talaba faqat o`qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o`zining ehtiyoji, qiziqta`lim va qobiliyatiga qarab, o`zi zarur deb hisoblagan qo`shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o`zlashtirishga o`rganib boradi.

**Talabalar mustaqil ta`limining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlar e`tiborga olinta`lim lozim:**

- o`qish bosqichi;
- muayyan fanning o`ziga xos xususiyati va o`zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);
- fanning axborot manbalari bilan ta`minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

## **2. Mustaqil ta`limni tashkil etishning mazmuni va shakllari**

Talabalarning mustaqil ta`limini tashkil etishda uning mazmuni va shakllarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagi omillarga alohida e`tibor qaratish lozim: 1) auditoriya mashg`ulotlarida mustaqil ta`limning rolini oshirish; 2) talabalarni auditoriyadan tashqari mustaqil ta`limni bajarishdagi faolliklarini oshirish. Auditoriya mashg`ulotlarida bajariladigan mustaqil ta`limning rolini oshirish professor-o`qituvchilardan talabalarning yuqori darajadagi mustaqil ta`limni va tayyorgarliklarini ta`minlovchi usul va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Har bir o`qituvchi mustaqil bajarish uchun

topshiriqlar banki va ularni bajarish uchun tavsiyalar tayyorlashi lozim. Albatta, topshiriqlar bankini yaratishda ularning murakkablik darajasi inobatga olinta`lim lozim.

Talabalarning mustaqil ta`limni bajarish jarayonidagi faolliklarini oshirish qator omillarga bog`liqdir. Fikrimizcha, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Bajarilayotgan mustaqil ta`limning pirovard natijasi har bir professor-o`qituvchi mustaqil ishlar uchun topshiriqlar berishda uning yakuniy mohiyatini tushuntirib berta`lim lozim. Agar talaba o`z ta`limning natijalarini ma`ruza jarayonida metodik qo`llanmada, laboratoriya yoki amaliy mashg`ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanta`lim mumkinligini bilsa, shubhasiz, u ishni sifatli bajarishga intiladi.

2. Talabalarni ilmiy-tadqiqot muhitiga kiritish. Bu yerda o`qituvchi talabalarga adabiyotlar ustida mustaqil ishlash malakasi bitiruv malakaviy ta`lim yozish uchun zamin yaratta`limni alohida ta`kidlashi lozim.

3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlar tanlovlarida ishtirok etish.

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta`limning oliy ta`lim bosqichida talabalar mustaqil ta`limining quyidagi shakllaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. O`rganilayotgan fanning boblariga oid berilgan mavzu bo`yicha referat, ma`ruza, ocherk tayyorlash.

2. Tanlangan fan bo`yicha illyustrativ materiallarni tayyorlash. Mavzu o`qituvchi tomonidan beriladi, uning mazmuni, shakli va ijrosi talaba tomonidan belgilanadi.

3. Hajmi, murakkabligi, mazmuni talaba tomonidan belgilanadigan ilmiy krossvordlar, diagrammalar tuzish.

4. Zamonaviy olimning maqolasiga, monografiyasiga, yozuvchining asariga taqriz yozish.

5. Mashq va masalalarni ishlash, matnni tarjima qilish yoki qayta

hikoyalash, jadvallar tuzish, grafik ishlarni amalga oshirish, turli hisob-kitoblarni amalga oshirish.


6. Talabalarni tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga yo'naltirilgan individual topshiriqlarni bajarish.

7. Kurs ishlari, loyihalarini bajarish.

8. Ilmiy-amaliy anjumanlar, olimpiadalar, ko'rik tanlovlarga tayyorgarlik.

9. Tanlangan mavzu bo'yicha insho yozish.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida ta'kidlash lozimki, talabalarning mustaqil ishlarini shakllarini aniqlashda quyidagi omillarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir: 1) mustaqil ta'limning bajarilish joyi; 2) mustaqil ta'limni bajarish usuli; 3) bajariladigan topshiriq mazmuni. Ko'rsatilgan omillarga tayangan holda talabalar mustaqil ta'limning quyidagi tasnifini taqdim etamiz:





## Talabalar mustaqil ta`limini baholash

TMT natijalari amaldagi "Oliy ta`lim muassalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Talabaning mustaqil ta`limi ma`ruza, amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifa berish jarayonida, o'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlarda maslahat berishda, akademik qarzdorlikni bartaraf etishda topshiriqlar berish jarayonida, qoldirilgan darslar bo'yicha topshiriqlarni bajarishda, kutubxonada ijodiy ishlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Demak, talabaning mustaqil ta`limi auditoriyada ham, undan tashqarida ham bajarilishi mumkin. Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ta`limlar asosiy o`rin tutadi. Har bir o'qituvchi mustaqil ta`limlar rejasini tuzishda buni e`tiborga olta`lim kerak.

OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati ( $30 * 0,40\% = 12$ ) auditoriya soatlari, 18 soati ( $30 * 0,60\% = 18$ ) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi.

Ushbu taqsimot asosida 4 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 120 soat ( $((30 * 2) * (0,20\% = 60))$ ) auditoriya darslarini, 60 soat ( $((30 * 2) * 0,30\% = 60)$ ) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarta`lim kerak bo'ladi.

Mustaqil ta`lim shakllari va resurslari:

O'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mustaqil ta`lim shakllari:

1. Fan to'garaklarida, olimpiadalarda, ilmiy anjumnlarda va tanlovlarda qatnashish.
2. Hisob-grafik ta`lim, kurs ta`lim (loyihasi)ni bajarish.
3. Malakaviy bitiruv ta`lim, magistrlik dissertatsiyasini bajarish.
4. Malakaviy, ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot amaliyoti, stajirovka o'tash.

5. Doktorant, tayanch doktorant, mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqotlari.

Talabaning mustaqil ta`limi uchun o`qituvchi tomonidan taqdim etiladigan ishlar:

1. O`quv adabiyotlari va internet saytlari.
2. Glossariylar va ma`lumotnomalar.
3. Keyslar va topshiriqlar to`plami.
4. Video materiallar.
5. Amaliy dasturlar.
6. Platforma, forum va chatlar.
7. Sillabus, dastur, reja va jadvallar.

Kredit bu baho emas.

5 kreditlik fanni 3 bahoga o`zlashtirgan talaba 5 kreditni qo`lga kiritadi. 5 kreditlik fanni 3 bahoga o`zlashtirgan bo`ladi.

1 kredit = 30 soat. 60 soat (auditoriya yuklamasi) =60 soat (mustaqil ta`lim).

Talabalar bilimni baholash va mutsaqil ta`limini tashkil etishda quyidagilar ustuvor vazifa bo`lta`lim lozim

Talabalardan olingan nazorat ishlarini tekshirib, talabalar tomonidan bildirilgan har-bir fikrga professor-o`qituvchilar tomonidan kengaytirilgan izohlar yozishlta`lim shart!

Oraliq hamda yakuniy nazorat savollarining 60% i mustaqil ta`lim mavzularidan bo`lta`lim shart!

Talabaning o`zi bajarta`lim lozim bo`lgan mustaqil ta`limni ham manbaasi fan o`qituvchisi tomonidan aniq ko`rsatib berilta`lim shart!

Talabalardan olinadigan nazorat turlarida savollarning manbasi ham aniq ko`rsatilgan bo`lishi shart. Aks holda, talaba savol yoki berilgan topshiriq yuzasidan e`tiroz bildirgan taqdirda u xaq bo`lib chiqadi!

Auditoriyada bajariladigan mustaqil ta`limlar asosan amaliy mashg`ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Amaliy mashg`ulotlarning teng yarmini, ya`ni juftlikning 50% vaqtini masala va topshiriqlarni bajarishga

ajratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunday mashg'ulot quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

1. O'qituvchining kirish so'zi (mashg'ulotning maqsadi, asosiy masalalar).
2. Tezkor so'rov.
3. 1-2 masala yoki mashqni doskada bajarish.
4. Masala va topshiriqlarni mustaqil bajarish.
5. Topshiriqlarni bajarishdagi xato va kamchiliklar ustida ishlash.

### **3. Talabalar mustaqil ta'limining metodik ta'minoti va nazorati**

Talabalar mustaqil ta'limining samaradorligi uning metodik ta'minoti bilan bog'liqdir. Ma'ruzalar matnlari, darsliklar, o'quv va metodik adabiyotlar, topshiriqlar va vazifalar banki, fan bo'yicha axborot resurslari mustaqil ishning metodik ta'minotini tashkil etadi.

Hozirgi kunda talabalar mustaqil ta'limini nazorat qilishning quyidagi turlari mavjud:

- kirish nazorati. Bunda talabaning fan o'rganishdan oldingi shu fan bo'yicha bilim va malakalari nazorat qilinadi;
- joriy nazorat, ya'ni ma'ruza, amaliy yoki laboratoriya mashg'ulotlarida materialning o'zlashtirishni muntazam nazorat qilinadi;
- oraliq nazorat.
- yakuniy nazorat.

Talabalar mustaqil ta'limining natijalari harakatdagi «Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi» to'g'risidagi Nizom talablari asosida baholanadi. Tajriba ko'rsatmoqdaki, ayrim professor o'qituvchilarda bu borada anglashilmovchiliklar mavjud. SHuning uchun «Nizom» talablarini quyidagi tartibda bajarishni tavsiya etamiz. Quyida ona tili va bolalar adabiyoti fani bo'yicha ayrim mustaqil ish turlarini bajarish bo'yicha topshiriq va tavsiyalar keltiriladi.

### **Mavzuni mustaqil o'zlashtirish**

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlardan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar etishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.q.) o'qituvchilardan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

### **Referat tayyorlash**

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, Internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

### **Ko'rgazmali vositalar tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar(jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar,musiqiy asar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum

ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin.

Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

### **Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash**

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bulgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Konsultatsiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin).

Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

### **Ilmiy maqola, tezislar va ma`ruzalar tayyorlash**

Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referat) xarakterda maqola, tezis yoki ma`ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, taxlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma`ruza kafedrada himoya qilinadi.

### **Amaliy mazmundagi nostandart masalalarni yechish va ijodiy ishlash**

Bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha nostandart, alohida yondashish talab

qilinadigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy-ijodiy vazifalar, modellar, maketlar, namunalar yaratish vazifasi topshirilgan ta'lim mumkin. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantlarini izlashga va topishga qaratilgan bo'lgan ta'lim kerak.

Talabning qiziqish va qobiliyatiga qarab, unga ilmiy xarakterdagi topshiriqlar berish, o'qituvchi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va chop ettirish mumkin.

### **Mustaqil ta'limmi yoki mustaqil ish?**

Ta'kidlash lozimki, aksariyat professor-o'qituvchilar o'zaro muloqot jarayonida terminologik noaniqlik yo'l qo'yadilar, ko'pincha mustaqil ta'lim tushunchasi o'rniga mustaqil ish iborasini ishlatadilar. SHuning uchun tavsiyalarimiz yakunida ushbu masalaga aniqlik kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, mustaqil ta'lim keng qamrovli tushuncha bo'lib, u ta'lim olish turlaridan birini tashkil etadi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, ta'lim-inson, jamiyat, davlat manfaatlari yo'lidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayoni. Bundan tashqari «ta'lim» termini o'zida ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida amalga oshiriladigan aniq maqsadga yo'naltirilgan va muntazam faoliyatning barcha turlari ma'nosini o'zida ifoda etadi. Xullas, ta'lim, avvalo, o'quvchilarda bilimlar, uquvlar va malakalar tizimlari shakllanta'limda ifodalanadigan ta'lim jarayonining nisbiy natijasidir.

Demak, mustaqil ta'lim iborasini qo'llash ushbu faoliyat turining mohiyatini to'liq ifodalaydi.

Masalan: "Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari. O'zbek bolalar adabiyoti istiloh va uning paydo bo'lishi." mavzusini talabalarga konspekt qilib kelish topshirilganida ular quyidagicha ish olib borishlari mumkin:

Mavzu: Ona tili va uning bo'limlari.

Reja:

- 1.O‘zbek bolalar adabiyoti istilohi va uning paydo bo‘lishi.
- 2.O‘zbek bolalar adabiyotining fan sifatida shakllanish bosqichlari.
- 3.Bolalar adabiyotining umumadabiyotga aloqadorligi.
- 4.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga oid kitoblarning xususiyatlari.
- 5.Kichik yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallangan asarlarga oid xususiyatlar.
- 6.O‘smirlarga oid badiiy asarlarga qo‘yilgan talablar.

Talaba mavzu bo‘yicha referatni tayyorlab bo‘lgach, quyidagicha adabiyotlar ro‘yxatini berta`lim mumkin:

Foydalanilgan adabiyotlar:

**Asosiy adabiyotlar:**

- 1.Hamidova M. Boshlang‘ich ta`limda bolalar adabiyoti (darslik).- Namangan: Usmon Nosir media, 2022.
- 2.Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti: o‘quv qo‘llanma. – Namangan, 2018. – 300 b.
- 3.Hamidova M. Ona tili va bolalar adabiyoti. – Namangan: Usmon Nosir, 2021. – 330 b.
- 4.Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. -T.: O‘qituvchi, 2002. -290 b.
- 5.Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti: darslik. – Toshkent, O‘zbekiston, 2002. – 242 b.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. -T.: O‘qituvchi, 2011.- 260 b.
- 7.Mirzayev T., Safarov O. va boshq. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 560 b.
8. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. -Buxoro: Durdona, 2019. - 420 b.
- 9.Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.
- 10.Sulaymonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: uslubiy qo‘llanma. – Namangan: Ibrat, 2008. – 96 b.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev. Sh.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2016.- 488 b.
4. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.- 104 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O‘zbekiston, 2023.- 46 b.
6. Barkamol avlod - O‘zbekiston taratssiyotining poydevori.- T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997.
7. Арзамасева И.Н., Николаева С.А. Детская литература. М.:Академия, 2000.
8. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. -T.: Fan, 2004
9. Masharipova Z. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. - T., 2008.
10. Jamilova B. O‘zbek bolalar publitsistikasi.- T.: Fan, 2006.- 114 b.
11. Matjon S. Kitob o‘qishni bilasizmi?- T.: O‘qituvchi, 1993.- 144 b.
12. Matjonov S., Qurboniyozov M. Bolalar adabiyoti. Ijodiy – uslubiy izlanishlar.- T.: Nizomiy nomidagi TDPI, 2009.- 135 b.
13. Nusratova H. Bolajonlik saodati (Safar Barnoyev ijodi asosida). -Toshkent: Muharrir, 2011.- 270 b.
14. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012
15. Ўзбек болалар адабиёти анталогияси. Икки жилдлик. 1-2-жилд.-Т.: Ўқитувчи, 2006.
16. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V.S. Mullis, Michael O. Martin. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education,



**Axborot manbaalari:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
5. [www.edu.Uz](http://www.edu.Uz)
6. tdpu-INTRANET. Ped

“Bolalar adabiyoti” fani bo’yicha quyidagi tarzda munozarali savollarni ham tayyorlash mumkin:

1. Bolalar adabiyotining vazifasi nimadan iborat?
2. Bolalar adabiyotida ma’naviyat deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalar adabiyotining boshqa fanlar bilan yaqinligini asoslab bering.
4. Bolalar adabiyoti – so’z san’ati deganda nimani tushunasiz?
5. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning o’ziga xos xususiyatlari nimada?
6. Bu davr bolalar kitobxonligi kimlar tomonidan amalga oshiriladi?
7. Bu davr bolalari tinglaydigan asarlar nomini ayting.
8. Bu davr bolalariga tavsiya etiladigan asarlarning hajmi, ma’no va mazmunini tushuntirib bering.
9. Kichik maktab yoshi davri bolalar kitobxonligining avvalgisidan farqi nimada?
10. Ota maktubidan maqsad nima?
11. Bu davr bolalarining orzu – intilishlarini yoritib bering.
12. Qanday yozma adabiyot namunasini ularga o’qish uchun tavsiya etish mumkin?
13. O’rta va katta yoshdagi davr bolalar kitobxonligining avvalgisidan farqi nimada?
14. Bu davr bolalar kitobxonligida o’qish, mehnat, vatanparvarlikni asoslab

bering.

15. Bu davr bolalar adabiyotida tarix deganda nimani tushunasiz?

16. Jahon bolalar adabiyoti xususida fikr yuriting.

Talabalar mustaqil ishni tashkil etish va o'tkazishda yuqoridagilardan kelib chiqib olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali talabalarni mustaqil ishga ham jiddiy munosabatda yondashishlari ta'minlanadi.

**60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabalari uchun  
uchun**

**“Bolalar adabiyoti” fanidan 5-semestr uchun**

**MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI:**

Mustaqil ta'lim topshiriqlari mazkur kurs mazmunini to'liq qamrab olish maqsadida tayyorlangan bo'lib, nazariy egallangan bilimlarni kengaytirish, talabalarning mustaqil o'qish faoliyatini yo'lga qo'yishga asoslangan.

Mustaqil topshiriqlari talabaning o'quv yuklamasining tarkibiy qismiga kirib, unda talaba tomonidan minimal 4 kredit (120 soat hajmda) to'planishi lozim. Mazkur kursdagi modullar yuzasidan topshiriqlar amaliy xarakterda bo'lib talaba tomonidan mustaqil o'zlashtirilishi va topshirilishi shart.

**Talaba 5 semestr yakuniga qadar 4 kredit to'plashi zarur va buning uchun 10 balldan beriladi.**

<b>V.1. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARINI TAQSIMLANISHI</b>		
<b>№</b>	<b>Mustaqil ishlarning mavzulari</b>	<b>soati</b>
1	Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari. O'zbek bolalar adabiyoti istilohi va uning paydo bo'lishi.	1
2	Bolalar kitobxonligi haqida. Bolalar adabiyotining umumadabiyotga aloqadorligi.	1

3	Mumtoz bolalar kitobxonligi va uning ko‘rinishlari.	1
4	Didaktik adabiyot va pandnomalar – bolalar kitobxonligida. “Guliston” va “Bo‘ston” - dunyoviy pandnoma xarakterdagi asar.	1
5	Bolalar folklori haqida tushuncha. Bolalar folklori tabiati va janriy tarkibi.	1
6	O‘zbek bolalar folklori namunalarini to‘plash, nashr etish va ilmiy-estetik qimmatini o‘rganish.	1
7	Ertaklarning janriy tabiati. Ertaklar tasnifi va turlari. Adabiy ertaklar. Adabiy ertaklarga xos xususiyatlar. O‘zbek adabiy she‘riy va nasriy ertaknavislik an‘analari.	2
8	Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta‘limiy qarashlar.	2
9	Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g‘oyalar. Asarda xalq og‘zaki ijodi namunalari ifodasi.	2
10	O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi va taraqqiyot xususiyatlari. Milliy uyg‘onish harakati va uning o‘zbek bolalar adabiyotini yuzaga keltirishdagi roli.	1
11	O‘tgan asrning 30-40 - yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti.	1
12	O‘zbek bolalar adabiyoti yuksalish yo‘lida (1940-80-yillar).	1
13	Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar adabiyoti.	1
14	A.Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta‘limiy va tarbiyaviy ahamiyati.	2
15	H.H.Niyoziy ma‘rifati. Ta‘limda joriy etilgan o‘qish kitoblarining shakllanishida H.H.Niyoziyning o‘rni. “Gul” turkumiga kiruvchi to‘plamlarining badiiy ahamiyati.	2
16	Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi. Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she‘rlarida ifodalangan g‘oyalar haqida. Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili.	1
17	Zafar Diyorning hayoti va ijodi. Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar. She‘riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi.	1
18	G‘afur G‘ulomning bolalar uchun yozilgan she‘rlarida ilgari surilgan g‘oyalar. G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida. G‘afur G‘ulom ijodida yumordan foydalanish mahorati. “Ahmadjon yomon bola emas-u ammo...”, “Nortojining kurak tishi” sherlari va “Shum bola” qissasi tahlili misolida.	2
19	Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Shoirning “Tabiat alifbesi” turkumidagi she‘rlari tahlili. Q.Muhammadiy she‘riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o‘rni hamda ahamiyati.	2
20	Shukur Sadulla hayoti va ijodi. Sh.Sa‘dulla ijodida hayotiy	1

	voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyliigi.	
21	Hakim Nazirning hayoti va ijodi. Hakim Nazirning kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan asarlariga xos xususiyatlar.	2
22	Po'lat Mo'minning hayoti va ijodi.	1
23	Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari.	1
24	"Sariq devni minib", "Qasoskorning oltin boshi", "Besh bolali yigitcha" asarlarining badiiy xususiyatlari.	2
25	Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalar.	2
26	M.A'zam she'rlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.	1
27	Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi. Shoir she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.	1
28	Safar Barnoyevning bolalarga bag'ishlangan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlari.	1
29	Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida. "Dahshatli Meshpolvon", "Alamazon va Gulmat", "Oltin yurakli Avtobola" qissalari tahlili.	2
30	Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.	1
31	Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she'rlari haqida. Abdurahmon Akbarning alifbo she'rlari haqida.	1
32	Istiqlol davri bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.	1
33	Davr bolalar she'riyati. Kavsar Turdiyeva, Dilshod Rajab va Abdusaid Ko'chimovlar ijodi.	1
34	Bolalar prozasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.	1
35	O'zbek bolalar adabiyoti tadqiqotchilari.	1
36	Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili. Fransiya bolalar adabiyoti va uning shakllanish tamoyillari. Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida.	2
37	Nemis bolalar adabiyoti. Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. X.K.Andersen ertaklarida tarix va zamon ifodasi.	2
38	Italiya bolalar adabiyoti: K.Kollodi va Janni Rodarining qissalar turkumi	1
39	Angliya bolalar adabiyoti va uning ayrim tamoyillari. D.Defo va uning "Robinzon Kruzo" sarguzasht asari tahlili.	1
40	J.Sviftning "Gulliverning sayohati" asarida ijtimoiy-siyosiy hayot ifodasi.	1
41	J.Rovling "Garri Potter" romani va uning g'oyaviy-badiiy mundarijasi.	1
42	Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari	2

	surilgan g'oyalar.	
43	Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalarga atab yaratgan asarlarining o'ziga xos xususiyatlari.	1
44	Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilgan "Yangi alifbo" asari haqida.	1
45	Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar.	2
	<b>JAMI</b>	<b>60</b>

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. "Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom.- Toshkent, 2009.
3. Saidov M.X. va boshqalar. Oliy ta'lim. Lug'at- ma'lumotnoma. Akademik A.G'ulomov umumiy tahriri ostida.- Toshkent: Moliya, 2003.
4. Talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yo'riqnoma.- Toshkent, 2009.